

Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!



Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!

Yurtimiz bo'ylab, 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan turli aktsiya va targ'ibot tadbirlari bo'lib o'tmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" degan ezgu g'oya asosida "Xotira abadiy - qadr mangu" shiori ostida Termiz shahar hokimligi tomonidan shahar Madaniyat bo'limi jamoasi ishtirokida Termiz shahridagi yirik savdo majmualari, bozorlar va aholi gavjum joylarda, ochiq maydonlarda g'alabaning 76 yilligiga bag'ishlangan kontsert dasturi namoyish etilmoqda. O'tkazilgan kontsert dasturi davomida ikkinchi jahon urushida va Afg'oniston urushida halok bo'lganlarni xotirlab, o'tganlarning ruhini yod etib, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining oila a'zolari holidan xabar olinmoqda. Termiz shahar madaniyat markazi qoshidagi badiiy jamoalarning, taniqli san'atkorlarning kontsert dasturlari tashrif buyurganlarga bayramona kayfiyat ulashib, yangragan kuy-qo'shiqlarga raqslarga tushishdi.